| <b>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna</b>                                                                                                                                                              |     |
| Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda<br>qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish .....                                                                           | 307 |
| <b>Olimjonova Nigina Sobirjon qizi</b>                                                                                                                                                             |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish .....                                                                                                             | 312 |
| <b>G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi</b>                                                                                                                                          |     |
| Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni .....                                                                                                                   | 317 |
| <b>Qodirova Sevara Shuxratovna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                                                                        | 325 |
| <b>Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi</b>                                                                                                 |     |
| Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan<br>foydalanishning sifat samaradorligi .....                                                                                   | 329 |
| <b>Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul</b>                                                                                                                                            |     |
| Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining<br>kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi .....                                                         | 333 |
| <b>Boynazarova Munajat</b>                                                                                                                                                                         |     |
| O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari .....                                                                                                                                      | 337 |
| <b>Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona</b>                                                                                                                                        |     |
| Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности<br>и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий .....                           | 340 |
| <b>Гаухар Джанпеисова</b>                                                                                                                                                                          |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish<br>muammolari va imkoniyatlari .....                                                                              | 347 |
| <b>Majidova Hilola Eshquvat qizi</b>                                                                                                                                                               |     |
| Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и<br>иностранных языков: интегративный подход .....                                                                      | 351 |
| <b>Турланова Сауле Дадажановна</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning<br>ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish .....                                                          | 357 |
| <b>Maxsetova Zuxra Torebayevna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti .....                                                                                                                            | 361 |
| <b>Karimov Odiljon Baxadirovich</b>                                                                                                                                                                |     |
| Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning<br>nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida) .....                      | 364 |
| <b>Samatova Munira Dilshod qizi</b>                                                                                                                                                                |     |
| Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей<br>дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи .....                                                                   | 368 |
| <b>Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.</b>                                                                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba<br>motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiy tavsifi ..... | 373 |
| <b>Ergasheva Matluba Burxonovna</b>                                                                                                                                                                |     |
| Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari .....                                                                                                | 378 |
| <b>Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich</b>                                                                                                                                                       |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi..... | 382 |
| <b>Karimov Feruz Raimovich</b>                                                                                                                |     |
| Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar .....                                            | 386 |
| <b>Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....                            | 389 |
| <b>Masharibova Lobar Rayimberganovna</b>                                                                                                      |     |
| Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....                                       | 393 |
| <b>Mirtoeyeva Shohruza Ibjohimjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish .....                                                   | 396 |
| <b>Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova</b>                                                                                                |     |
| Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....                                                             | 400 |
| <b>Raxmatova Nargiza Dolibayevna</b>                                                                                                          |     |
| Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi..... | 403 |
| <b>Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi</b>                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....        | 406 |
| <b>Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna</b>                                                                                |     |
| Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari .....                                        | 410 |
| <b>Sh. T. Musulmonova</b>                                                                                                                     |     |
| 15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash .....                                                                  | 413 |
| <b>Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli</b>                                                           |     |
| Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....                                          | 416 |
| <b>Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri .....                                                                        | 419 |
| <b>Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi</b>                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....                                                                               | 422 |
| <b>Turdiyeva Raxima Kurbanovna</b>                                                                                                            |     |
| Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....                                   | 426 |
| <b>Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna</b>                                                                        |     |
| Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....                                                       | 432 |
| <b>Г. С. Алиходжаева</b>                                                                                                                      |     |
| Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников .                                                     | 436 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева</b>                                                                                                   |     |
| Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель .....                   | 440 |
| <b>Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева</b>                                                                                 |     |
| O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...                                 | 444 |
| <b>Murodova Umida Dilmurodovna</b>                                                                                                            |     |
| Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку .....                           | 449 |
| <b>Саидова Махсудахон Аббасовна</b>                                                                                                           |     |
| Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....                                  | 452 |
| <b>Собирова Пошшаой Эркин кизи</b>                                                                                                            |     |
| Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....                                                           | 455 |
| <b>Хафизова Машхура Аминовна</b>                                                                                                              |     |





# TASVIRIY FAOLIYAT JARAYONIDA MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUH BOLALARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTN SHAKLLANTIRISH

Namazbayeva Lola Zakirovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU, "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD), dotsent

Malikova Umida Nurliboy qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU, Ta'lim va tarbiya nazariyasi (maktabgacha ta'lim) yo'nalishi, 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida bolalarda emotsional intellektni shakllantirishda tasviriy faoliyatning pedagogik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda rasm chizish, bo'yash, aplikatsiya va loy bilan ishlash jarayonlarining bolalarning emotsiyalarni anglash, ifodalash hamda boshqarish ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilingan. Tasviriy faoliyat vositasida bolalarda empatiya, o'z his-tuyg'ularini anglash va ijtimoiy moslashuv sifatlarining rivojlanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** emotsional intellekt, tasviriy faoliyat, maktabgacha ta'lim, tayyorlov guruhi, emotsiyalar, empatiya, ijodiy faoliyat, shaxs rivoji.

**Abstract:** This article examines the pedagogical significance of art activities in the development of emotional intelligence among children in preschool preparatory groups. The study analyzes the impact of drawing, coloring, appliqué, and modeling activities on children's ability to recognize, express, and regulate their emotions. The role of art activities as an effective means of fostering empathy, emotional awareness, and social adaptation in senior preschool children is theoretically substantiated.

**Key words:** emotional intelligence, art activities, preschool education, preparatory group, emotions, empathy, creative activity, personality development.

**Аннотация:** В статье раскрывается педагогический потенциал изобразительной деятельности в формировании эмоционального интеллекта у детей подготовительной группы дошкольной образовательной организации. Проанализировано влияние различных видов изобразительной деятельности (рисование, раскрашивание, аппликация, лепка) на развитие у детей умений осознавать, вербализовать и регулировать собственные эмоциональные состояния. Теоретически обоснована роль изобразительной деятельности как эффективного средства формирования эмпатии, эмоциональной отзывчивости и успешной социальной адаптации детей старшего дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** эмоциональный интеллект, изобразительная деятельность, дошкольное образование, подготовительная группа, эмоции, эмпатия, творческая деятельность, развитие личности.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lib, aynan ushbu davrda bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy kompetensiyalari shakllanadi. 6–7-yosh davri psixologlar tomonidan emotsional rivojlantirishning sezgir bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Shu davrda bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish va boshqalarning emotsional holatini tushunish qobiliyatlari faol rivojlanadi. Emotsional intellekt tushunchasi ilmiy muomalaga XX-asr oxirlarida kiritilgan bo'lib, uning konseptual asoslari Daniel Goleman tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, emotsional intellekt shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, ularni nazorat qilish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi kompleks qobiliyatdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional intellekt bolalarning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim konsepsi-

yasida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, tasviriy faoliyat bolalarning ichki dunyosini aks ettirish, emotsional tajribasini boyitish va refleksiya qilish imkonini beruvchi samarali pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – tasviriy faoliyat jarayonida maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida emotsional intellektni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asoslashdir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Emotsional intellekt tushunchasi psixologiya fanida XX-asr oxirida keng ilmiy muhokamaga kirib kelgan bo'lib, uning nazariy asoslari Daniel Goleman tomonidan 1995-yilda chop etilgan Emotional Intelligence asarida tizimli yoritilgan. Muallif emotsional intellektni shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq kompleks qobiliyat sifatida talqin qiladi. Golemanning yondashuvi bolalik davridan boshlab emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi va maktabgacha ta'lim bosqichini ushbu jarayonning muhim davri sifatida ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanishi masalasi o'zbek olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. N. Ismoilova 2020-yilda nashr etilgan Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanish asoslari nomli asarida bolalarning his-tuyg'ularni anglash va ifodalash jarayoni faoliyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallif emotsional rivojlanishning sezgir davrida pedagogik ta'sirning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tasviriy faoliyatning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojidagi ahamiyati F. Zokirova tomonidan 2019-yilda e'lon qilingan ilmiy maqolada keng yoritilgan. Muallif tasviriy faoliyat bolalarning ijodiy tafakkuri, tasavvuri va emotsional tajribasini boyitishda muhim vosita ekanini qayd etadi. Shuningdek, A. K. Bondarenko 1990-yilda chop etilgan Изобразительная деятельность в детском саду asarida tasviriy faoliyatning bolalar psixik rivojiga, jumladan, emotsional sohasiga ijobiy ta'sirini metodik jihatdan asoslab bergan.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan va integrativ yondashuv masalalari L. Z. Namazbayeva tomonidan yoritilib, 2024–2025-yillardagi ilmiy maqolalarida ijtimoiy-emotsional muhitni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Muallif emotsional xavfsizlik, qo'llab-quvvatlovchi pedagogik pozitsiya va faoliyatga asoslangan metodlarni samarali omillar sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv tasviriy faoliyat orqali emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy asoslarini boyitadi.

Shuningdek, M. S. To'lqinovna va Sh. T. Musulmonova tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning intellektual va nutqiy rivojlanishi faol metodlar asosida takomillashtirilishi yoritilgan. Ushbu ishlarda faoliyatga asoslangan texnologiyalar, jumladan, ijodiy topshiriqlar va integrativ mashg'ulotlarning bolalarning mustaqil fikrlashi va emotsional faolligini oshirishdagi roli ko'rsatib berilgan. Tahlil qilingan adabiyotlar tasviriy faoliyatni maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida emotsional intellektni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida ilmiy asoslash imkonini beradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida (6–7-yoshli bolalar) olib borildi. Tadqiqot jarayoni ilmiylik, tizimlilik, izchillik va yosh xususiyatlariga moslik tamoyillari asosida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, faoliyat yondashuvi hamda emotsional intellekt nazariyasining asosiy qoidalari tashkil etdi. Tadqiqotda tayyorlov guruhining 20 nafar tarbiyalanuvchisi ishtirok etdi. Ishtirokchilar yosh va psixologik rivojlanish xususiyatlariga ko'ra bir xil guruhga mansub bo'lib, tadqiqot jarayoni tabiiy pedagogik muhitda olib borildi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatish, diagnostik suhbat, bolalar ijodiy ishlarini kontent-tahlil qilish, eksperimental mashg'ulotlarni tashkil etish hamda qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatish jarayonida bolalarning mashg'ulot davomidagi emotsional reaksiyalari, o'zaro muloqoti, rang tanlash xususiyatlari va ijodiy faolligi tizimli ravishda qayd etildi. Diagnostik suhbat orqali bolalarning emotsiyalar haqidagi tasavvurlari, his-tuyg'ularni anglash va verbal ifodalash qobiliyati o'rganildi. Ijodiy ishlar kontent-tahlili jarayonida rasm va aplikatsiyalarda qo'llanilgan ranglar, obrazlar, kompozitsion yechimlar hamda ifodalangan emotsional mazmun tahlil qilindi.

Eksperimental mashg'ulotlar emotsional-intellektual rivojlanishga yo'naltirilgan maxsus metodika asosida tashkil etilib, haftasiga 2 marta, har biri 25–30 daqiqa davomida o'tkazildi. Diagnostik bosqichda bolalarning asosiy emotsiyalarni farqlash, ularni nomlash, tushuntirish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash hamda salbiy emotsiyalarni boshqarish darajasi baholandi. Natijalar bolalarda emotsiyalarni farqlash ko'nikmalari mavjud bo'lsa-da, ularni boshqarish va chuqur ifodalash darajasi yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatdi. Shakllantiruvchi bosqichda “Kayfiyatim ranglarda”, “Quvonch va xafagarchilik obrazi”, “Do'stimning his-tuyg'usi”, “Qo'rquvni rasm orqali yengamiz” kabi mavzular asosida mashg'ulotlar tashkil etildi.



Mashg'ulotlar kirish, asosiy ijodiy faoliyat hamda refleksiya bosqichlaridan iborat bo'lib, bolalarning emotsional tajribasini boyitishga xizmat qildi. Tasviriy faoliyat jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish, individual yondashuvni ta'minlash, ijodiy erkinlik berish, rag'batlantiruvchi baholashni qo'llash va emotsional refleksiyani tashkil etish asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi. Pedagog tomonidan bolalarning emotsional holati muntazam monitoring qilinib, zarur hollarda individual qo'llab-quvvatlovchi muloqot tashkil etildi. Mazkur metodologik yondashuv tasviriy faoliyatni nafaqat ijodiy jarayon, balki emotsional-intellektual rivojlanishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida tashkil etish imkonini berdi.

Emotsional intellekt tushunchasi ilk bor XX-asr oxirlarida psixologiya fanida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shaxsning emotsiyalar bilan bog'liq aqliy faoliyatini ifodalaydi. D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, emotsional intellekt o'z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil eta olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yosh davri emotsional intellekt asoslari shakllanadigan sezgir bosqich hisoblanadi. Tayyorlov guruhi yoshidagi bolalar (6–7-yosh) emotsional jihatdan nisbatan barqarorlashgan bo'lsa-da, ularning his-tuyg'ulari tez o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli pedagog tomonidan emotsional holatlarni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat bolalar uchun emotsiyalarni erkin ifodalashning qulay vositasi bo'lib, unda bola o'z ichki kechinmalarini rasm, rang va shakllar orqali namoyon etadi. Ushbu jarayon bolalarning emotsional ongini boyitadi va o'zini anglash jarayonini faollashtiradi. Tasviriy faoliyatga rasm chizish, bo'yash, aplikatsiya, konstruksiya va loy bilan ishlash kiradi. Ushbu faoliyat turlari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning emotsional holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Guruhda tashkil etilgan tasviriy faoliyat jarayonida bolalar o'zaro muloqot qiladi, bir-birining ishlarini kuzatadi, fikr bildiradi, bu esa empatiya, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tasviriy faoliyatni emotsional-intellektual rivojlanishga yo'naltirib tashkil etish bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash va ularni so'z orqali ifodalashga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Mashg'ulot yakunida o'tkaziladigan qisqa suhbatlar va o'z ishini tushuntirish jarayoni emotsional refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirib, bolalarning nutqiy faolligini oshiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari tasviriy faoliyatning emotsional intellektni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi bosqichdan so'ng quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- bolalar emotsiyalarni aniqroq farqlay boshladi;
- emotsional lug'at boyligi kengaydi;
- salbiy emotsiyalarni konstruktiv ifodalash ko'nikmasi shakllandi;
- empatiya va hamkorlik darajasi oshdi;
- nutqiy faollik hamda o'ziga ishonch mustahkamlandi.

Bolalar ijodiy ishlarida rang tanlashning ongli xarakter kasb etgani, obrazlar orqali ichki kechinmalarni ifodalash holatlari ko'paygani aniqlandi. Mashg'ulot yakunidagi suhbatlar emotsional refleksiya mexanizmini faollashtirdi.

Olingan natijalar tasviriy faoliyatning emotsional-intellektual rivojlanishdagi integrativ ahamiyatini ko'rsatadi. Tasviriy faoliyat bolalarning sensor, kognitiv va emotsional tajribasini birlashtiruvchi kompleks jarayondir. Ranglar psixologiyasi nuqtai nazaridan, rang tanlash bolaning ichki holati bilan bevosita bog'liqdir. Obraz yaratish jarayoni esa emotsional tajribani tashqi ifodaga aylantirish imkonini beradi. Bu esa emotsional ong va refleksiya jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Guruhli tasviriy faoliyat bolalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantiradi. O'zaro fikr almashish, bir-birining ishini tahlil qilish empatiya va tolerantlikni shakllantiradi. Pedagogning qo'llab-quvvatlovchi pozitsiyasi bolalarning psixologik xavfsizligini ta'minlaydi.

Shuningdek, tasviriy faoliyatning terapevtik xususiyati ham aniqlanadi. Bola o'z qo'rquv va tashvishlarini rasm orqali ifodalash orqali ichki zo'riqishni kamaytiradi. Bu esa emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy faoliyat maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida emotsional intellektni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Mazkur faoliyat orqali bolalarda o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, empatiya hamda ijtimoiy moslashuv, emotsional refleksiya, nutqiy va ijodiy faollik rivojlanadi.



Tasviriy faoliyatni tizimli, metodik jihatdan asoslangan va emotsional-intellektual rivojlanishga yo'naltirilgan holda tashkil etish bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini oshiradi hamda ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Goleman, D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995-y., 36-b.
2. Ismoilova, N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanish asoslari. – Toshkent: Fan, 2020-y.
3. Zokirova, F. Tasviriy faoliyatning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojidagi ahamiyati. – Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2019-y.
4. Бондаренко, А. К. Изобразительная деятельность в детском саду. – Москва, 1990-г., 143-стр.
5. To'lginovna, M. S. "Effective Methods of Improving the Technology of Developing the Intellectual Opportunities of Preschool Children through the Introduction of Science and Nature." – SHOKH LIBRARY, 2025-y.
6. Намазбаева, Л. З. (2025). Инклюзивное образование: интеграция теоретических основ и практических методов для формирования эффективной образовательной среды. – Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(5).
7. To'lginovna, M. S. (2025). Effective Methods of Improving the Technology of Developing the Intellectual Opportunities of Preschool Children through the Introduction of Science and Nature. – SHOKH LIBRARY.
8. Намазбаева, Л. З. (2024). Формирование национального самосознания у детей дошкольного возраста через приобщение к культурному наследию. – Inter Education & Global Study, (7), 109–116-b.
9. Намазбаева, Л. (2025). Эффективные педагогические стратегии и игровые методики для инклюзивных детей. – Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(1).
10. Намазбаева, Л. З. (2024). Introduction of National Values in the Process of Upbringing and Education of Preschool Children. – In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 3(4), 129–132-b.
11. To'lginovna, M. S. (2023). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish. – PEDAGOGS jurnali, 26(1), 163–165-b.
12. Musulmonova, Sh. T. (2025). Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish texnologiyalari. – Inter Education & Global Study, 1, 379–384-b.



- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.